

## TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK MASHG'ULOTLARIDA GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

I.U. Izbasarov, D.A. Rahmanova (*O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi.*)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktablarda tasviriy san'at va chizmachilik darslarni samaradorligini oshirishda grafik dasturlardan foydalanish va zamonaviy grafik dasturlarning imkoniyatlari haqidagi fikr, mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** frilanser, fasalitor, sun'iy intellekt, logotip, Adobe illustrator, Adobe Photoshop, Adobe InDesign CC, Canva, CorelDRAW, Pixlr, Creative Commons, Autodesk Sketchbook, PaintShop Pro, Piktochart, Photoshop Elements, Venngage, Gravit Designer, AutoCAD, Easely, Autodesk 3ds Max.

Texnologiyaning rivojlanishi odamlar hayotining deyarli barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bu deyarli har bir vazifada ishlash uslubimizni o'zgartirdi. Tasviriy fa'oliyat va u bilan bog'liq fanlar, xususan tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'qitishda ham. Ilgari rassomlar qalam, qog'oz va bo'yoqlardan foydalangan holda ish olib borgan bo'lsa, endi kompyuter dasturlaridan ham foydalanish mumkin. Pandemiya davri barcha sohalarida salbiy ta'sirini ko'rsatdi, ammo grafik dizayn bozori hajmi anchagina yuqori bo'ldi, natijada "Frilanserlik – qo'shimcha daromad" olish uchun muhim sarmoyalar qilish talablari oshdi.

2020-yil 24-aprel Yurtboshimiz tomonidan videoselektor yig'ilishida "Ijtimoiy qatlamni qo'llab quvvatlash, kambag'allikka qarshi kurashish"da alohida e'tiborni "Frilanser" mavzusiga qaratdilar. Sun'iy intellektning rivojlanishi jismoniy mehnatning kamayib, aqliy mehnatga bo'lgan talabning ortishi hisobiga, kelajakda kutilayotgan ishsizlikni oldini olish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, IT sohasiga qiziqtirish va masofaviy xizmat ko'rsatishni oshirish lozimligini aytib o'tdilar.

"Kompyuter grafikasi" fani har bir soha bilan uzviy bog'liqligi, jahon bozorida unga bo'lgan talabning ortib borayotganini inobatga olib maktab tasviriy san'at va chizmachilik darslarida o'quvchilarni darsga qiziqtirish, ta'lim samaradorligini oshirish, kutilgan natijaga erishish uchun pedagog kadrlardan nafaqat o'z sohasi bo'yicha, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan ma'lum bilimlarni chuqur egallashi, zamonaviy grafik dasturlardan foydalana olishi, ularni amalda qo'llay olishi o'quvchilarga xalqaro talablar darajasida yetkazish uchun o'qituvchi fasalitor vazifasini bajarishi, o'quvchini mustaqil fikrlashga, mustaqil izlanishga o'rgata olishi kerak.

Milliy O'quv dastur asosida yaratilgan yangi tasviriy san'at darsliklarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, zamonaviy san'at turlari va grafik dasturlardan foydalanib mustaqil ish bajarishlari haqidagi mavzularning kiritilishi, o'quvchilarda bu sohada qiziqishni ortishga, grafik dasturlardan foydalanib logotip tayyorlash, "Zamonaviy

arxitektura”, “Dizayn san’ati” kabi mavzular orqali o‘quvchilarning grafik dizaynerlik haqidagi bilimlarning ortishiga juda yaxshi turtki bo‘ldi. Bunda eng asosiy maqsad-zamonaviy tasviriy san’at orqali o‘quvchi yoshlarimizdagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni yuzaga chiqarishdir.

Shu o‘rinda, o‘qituvchilarning darsga tayyorgarlik jarayonini va grafik dasturlar haqidagi bilimlarini ham inobatga olish zarur.

*Maktab ta’lim jarayoniga grafik dasturning ahamiyati qanday?*

Ta’lim muassasalarida bugungi kunda o‘quvchilarni dars mashg‘ulotlarida jalb qilish dolzarb masalaga aylandi. Bunga asosiy sabablardan biri bu axborot texnologiyalarining rivojlanishidir.

21-asr texnologiyalar asrida o‘quvchilarga kompyuter, telefon, gadjetlarni cheklashning imkoni yo‘q, ammo undan samarali foydalanishga o‘rgatish o‘qituvchining muhim vazifalaridan biridir. Shu o‘rinda, o‘qituvchi o‘quvchining qiziqishidan kelib chiqib darsning qiziqarli va samarali bo‘lishi uchun “Point” dasturida rasm chizish, “Canva” dasturida animatsiyalar tayyorlash, chizmachilik darslarida “Kompas”, “AutoCad”, “3D MAX” dasturlaridan foydalanib yangi loyiha ishlarini bajarishi va shu orqali o‘quvchilarni darsga qiziqtirish va muhim ko‘nikmalarni shakllantirishi mumkin. Natijada, maktab o‘quvchilari amaliy mashg‘ulotlarda logotiplar, reklamalar, jurnallar maketlari, afishalar, illyustratsiyalarni kompyuter texnikasidan foydalanib mustaqil bajaradilar, bu jarayon o‘quvchida hayotiy muammolarini yecha olish qobiliyatini rivojlantiradi, bunda o‘qituvchining vazifasi tushuncha va yo‘nalish berishdan iborat.

*Bugungi kunda o‘qituvchining o‘zi grafik dasturlardan mustaqil foydalana oladimi?*

Mamlakatimizda bilimli, tajribali, o‘z ustida ishlaydigan o‘qituvchilarimiz ko‘p, lekin zamonaviy fikrlaydigan, yangi texnologiyalarni chuqur biladigan, yuksak salohiyatli kadrlar hali yetarli darajada emas. Bunga asosiy sabab, o‘qituvchilarning faqatgina darslik va qo‘llanmalar bilan chegaralib qolganligidir.

Ta’limda bo‘layotgan o‘zgarishlar, yil sayin yangilanib, rivojlanib borayotgan texnologiyalar va ular bilan ishlash bo‘yicha o‘qituvchilar bilimlarni oshirib borish uchun “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasida ham o‘quv kurslar tashkil etilgan. Amaliy fanlar uchun 36 soatlik malaka oshirish o‘quv kurslari an’anaviy shaklda olib borilsada, “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasida kompyuter texnologiyalari va turli grafik dasturlardan foydalanish haqidagi videodarslar orqali o‘qituvchilar malakalarini masofadan turib oshirib borishlari mumkin.

Fan darsliklarining zamon talabi asosida yangilanishi o‘qituvchilarni ko‘proq izlanishga, ijodkorlikka undamoqdi. Shuning uchun hozirda o‘qituvchilar oldidagi dolzarb masala bu yangi texnologiyalar imkoniyatidan foydalanish ko‘nikmalarini taqdim etuvchi ma’lumotlar va grafik dasturlarni o‘rganish, zamonaviy kompyuter texnologiyalari orqali fan doirasidagi bilimlarni o‘quvchilarga yetkazishda samarali natijalarga erishishdan iborat.



*Nima uchun o'quvchilarga grafik dasturlashni o'rgatish kerak?*

Axborot texnologiyalarning rivojlanishi internet tarmoqlari orqali axborot almashish va yangiliklardan xabardor bo'lish uchun foydali tomonlari juda ko'p, ammo, yoshlar bundan unumli foydalanayaptmi degan savol bizni o'ylantiradi. Biz cheklov qo'yish orqali natijaga erisha olmaymiz. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun kreativ fikrlaydigan, zamonaviy texnologiyalardan erkin foydalana oladigan, xorijiy tillarda mustaqil fikrini ayta oladigan yoshlarni tarbiyalash uchun o'zlari qiziqadigan yo'l bilan ta'sir etish, ya'ni ijtimoiy tarmoqlardan kasb sifatida foydalanishni o'rgatishimiz mumkin. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining YouTube'dagi "Milliy ta'lim resurslari" rasmiy kanalida o'quvchi-yoshlarga yangi davrga mos 30 ga yaqin zamonaviy kasblarni o'rganish uchun berilgan o'zbek tilidagi video darslarni, dars mashg'ulotlarida birgalikda ishlash o'quvchida ko'nikma shakllantirish mumkin.



## Bugungi kundagi ba'zi grafik dasturlarning nomlanishi.

Hozirgi kunda grafik dasturlar soni juda ko'p bo'lib ular bajaradigan vazifasiga ko'ra har xil.

**Adobe Illustrator** har qanday murakkablikdagi vektorli tasvirlarni yaratishga mo'ljallangan. **Adobe Photoshop** fotosuratlar, tasvirlar va grafik dizaynni tahrirlashga mo'ljallangan rastri grafik muharrir. **Adobe InDesign CC** asosan bosma va raqamli ommaviy axborot vositalari uchun hujjatlarni yaratish, ish yuritish materiallari, varaqalar, yillik hisobotlar va jurnallarni loyihalash uchun mo'ljallangan professional dastur. **Canva** professional sifatli grafik dizaynlarni osongina yaratishga mo'ljallangan. **CorelDRAW** vektorli grafika bilan ishlashga mo'ljallangan grafik moharrir. **Pixlr** professional sifatni yo'qotmasdan tasvirni tez tuzatishga mo'ljallangan. **Creative Commons** loyihalarni

chizish va qayta ishlashga mo'ljallangan dastur. **Autodesk Sketchbook** ijodiy mutaxassislar uchun mahalliy eskiz ilovasi. **PaintShop Pro** rasmlarni osongina tahrirlash, grafik dizaynlarni yaratishga mo'ljallangan. **Piktochart** infografika yaratishda yordam berish uchun yaratilgan bulutli grafik dizayn dasturi. **Photoshop Elements** katta hajmdagi rasmlar to'plamini boshqarish uchun kerak mo'ljallangan. **Vennage** infografika yaratuvchi ilova. **Gravit Designer** kuchli vektorli grafik dizayn dasturi. **AutoCAD** eng murakkab loyihalarni chizishga mo'ljallangan dastur. **Easely** eng yuqori dizayndagi infografika yaratishga mo'ljallangan. **3ds Max** 3D-modellashtirish, animatsiya va vizualizatsiya uchun mo'ljallangan.

6-7-sinf dars mashg'ulotlarida "Canva" dasturidan foydalanib o'quvchilarga ramziy belgi, emblema, plakat, e'lon, reclama, video animatsiyalar tayyorlashni tushuntirish va amaliy mashg'ulotlarni bajarish bosqichlarini ko'rsatib borish darsni samarali, vaqtdan unumli foydalanish o'quvchilarni yaxshi bilim olishlariga xizmat qiladi. Chizmachilik dars mashg'ulotlarida esa 3ds Max, Kompas, AutoCAD dasturlaridan foydalanib, fazoviy tassavur shakllantiriladi, loyiha ishlarini bajarish orqali o'quvchilarda ko'nikma hosil qilinadi.

Umumiy qilib aytganda, O'quvchining men bu fanni nimaga o'rganishim kerak? degan savoliga javob berish uchun dars mashg'ulotlarini- Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL- o'quvchilar real dunyo va shaxsan mazmunli loyihalarda faol ishtirok etish orqali o'rganadigan o'qitish usuli) usuli asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etishdir. Bunda darsning maqsadi o'rganadi emas, bajara oladi degan maqsadga o'zgaradi.

O'qituvchi o'z ustida ishlab grafik dasturlarni o'rganishi, dars mashg'ulotlarida o'quvchilarga o'rgatish davomida grafik dizaynerlikni mukammal o'rganadi, natijasida "Frilanserlik" qo'shimcha daromad olishi ham mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Alimov, X.Rixsiboyeva, S.Tursunov, U.Xodjayeva, T.Rixsiboyev "Kompyuter grafikasi" Toshkent-2018.
2. E.I.Ro'ziyev, A. O. Ashirboyev "Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi" Toshkent 2010 yil.
3. A.Sulaymonov, S.Muhamedjanova, Z.Sulaymonova, D.Xaytmetov. Tasviriy san'at 7-sinf. Toshkent-2022
4. X.Muratov, D.Mirxakimova, K.Abdullayev. Tasviriy san'at 7-sinf. Toshkent-2022

### Foydalanilgan web saytlar

1. [http// autodesk.com](http://autodesk.com)
2. Telegram ijtimoiy tarmog'idagi "Grafik dasturlar" kanallari.
3. YouTube'dagi "Milliy ta'lim resurslari  
([https://www.youtube.com/@milliy\\_talim\\_resurslar](https://www.youtube.com/@milliy_talim_resurslar))"